O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING RIVOJLANISHI VA UNING O‘RNI

Ilmiy rahbar: **Ergasheva Shoxinur G’ayratjon qizi**
Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti,
Xalqaro iqtisodiyot kafedrasi o’qituvchisi
E-mail: shgayratovna@uwed.uz

Sadulloyev Umar Ismatilloyevich
Jahon Iqtisodiyoti va Diplomatiya universiteti,
Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti,
1-bosqich talabasi
Email: sadulloyevumar3070@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida turizmning so‘nggi yillardagi rivojlanish tendensiyalari, uning milliy iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasi, ish o‘rinlari yaratishdagi roli, eksport daromadlaridagi ulushi va yalpi ichki mahsulot (YaIM)ga ta‘siri ilmiy-tahliliy jihatdan o'rganilgan. Maqolada 2023-2025-yillar statistik ma‘lumotlari asosida turizm sohasidagi islohotlar samaradorligi baholangan hamda soha rivojlanishidagi muammolar va istiqbollar aniqlangan.

Kalit so‘zlar: turizm, iqtisodiyot, YaIM, eksport, investitsiya, infratuzilma, sayyohlar oqimi, ish o‘rinlari, O‘zbekiston.

KIRISH

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida turizm eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri sifatida e’tirof etilgan. Jahon turizm tashkiloti (UNWTO) ma’lumotlariga ko’ra, turizm sektori global YaIM ning taxminan 10 foizini tashkil etadi va dunyo bo‘yicha har o‘nta ish o‘rnidan biri bevosita yoki bilvosita turizm bilan bog‘liq. Markaziy Osiyo mintaqasida esa O‘zbekiston xalqaro sayyohlik xaritasida tobora muhim o‘rinni egallayotgan davlat sifatida ko‘zga tashlanmoqda.

O‘zbekiston – ko‘hna Ipak yo‘lining markazida joylashgan, boy tarixiy-madaniy merosga, noyob me’moriy obidalar va ulkan tabiiy-iqlimiy xilma-xillikka ega davlat. Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi qadimiy shaharlar insoniyatning umumiy merosi sifatida UNESCO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Bu ulkan salohiyat mamlakatimiz turizmini rivojlantirishning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda.

2016-yildan boshlab O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan keng qamrovli iqtisodiy islohotlar doirasida turizm tarmoqi ham ustuvor yo‘nalishlardan biriga aylandi. Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida qabul qilingan bir qator farmon va qarorlar orqali turizm infratuzilmasini rivojlantirish, sayyohlar uchun qulay sharoit yaratish, vizasiz tartibni kengaytirish va sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Ushbu islohotlar natijasi o‘laroq, mamlakatga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar soni yildan-yilga jadal sur‘atlarda o‘sib bormoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi – O‘zbekiston turizmining rivojlanish dinamikasini o‘rganish, uning milliy iqtisodiyotga qo‘shayotgan hissasini miqdoriy jihatdan baholash hamda sohaning kelajak istiqbollarini ilmiy asosda tahlil qilishdan iborat.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA MANBALAR

Tadqiqotda tavsifiy tahlil, qiyosiy tahlil va statistik usullardan foydalanilgan. Asosiy manbalar sifatida O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (Uzstat) ma‘lumotlari, O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi va Madaniyat va turizm vazirligi hujjatlari, Prezident rasmiy nutqlari va farmonlari, shuningdek, xalqaro turizm tashkilotlari (UNWTO) ma’lumotlaridan foydalanildi. Maqolada asosan 2016-2025-yillar oralig‘idagi ma’lumotlar qamrab olindi.

O‘ZBEKISTON TURIZMINING TARIXIY TARAQQIYOTI

Islohotgacha davr (2016-yilgacha)

O‘zbekiston 1991-yilda mustaqillikka erishganidan so‘ng, turizm sohasida dastlabki yillarda sezilarli rivojlanish kuzatilmadi. Murakkab viza tartibi, rivojlanmagan infratuzilma, xizmat sifatining

pastligi va marketing faoliyatining zaif tashkil etilganligi mamlakatimizga sayyohlar oqimining o‘sishiga to‘sqinlik qildi. Bundan tashqari, moliyaviy tizimning qat’iy nazorati va valyuta almashinuvining murakkabligi xorijiy sayyohlar va investorlar uchun jiddiy to‘siq bo‘lib turdi.

2016-yilgacha mamlakatta yiliga 2 million atrofida xorijiy sayyoh tashrif buyurar edi. Turizm eksportidan tushadigan daromad esa 500 million dollardan oshmas edi. Bu ko‘rsatkichlar mamlakat iqtisodiy salohiyatiga nisbatan ancha past darajada edi.

Islohotlar davri (2016-yildan hozirgi kungacha)

2016-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar turizm sohasida ham tub o‘zgarishlar keltirib chiqardi. 2019-yil 5-yanvarda Prezidentning “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5611-son Farmoni turizm sohasida tizimli islohotlarning huquqiy poydevorini yaratdi. Ushbu farmon orqali 2019-2025-yillarda turizmni rivojlantirish Konsepsiyasi tasdiqlandi.

2023-yil 27-iyulda “Ma’muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmon qabul qilindi. 2025-yil 15-mayda esa “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko'lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-87-son Farmon imzolandi.

Bu islohotlar bir qator muhim yo‘nalishlarda amalga oshirildi: vizasiz tartibni 94 ta davlatga kengaytirish; elektron viza tizimini joriy etish; aeroport infratuzilmasini modernizatsiya qilish; xalqaro sertifikatlar talablariga javob beradigan mehmonxonalar qurish; turizm klasterlarini rivojlantirish; raqamli turizm platformalarini yaratish hamda xalqaro marketing faoliyatini kuchaytirish.

TURIZM RIVOJLANISHINING STATISTIK KO‘RSATKICHLARI

Sayyohlar oqimining dinamikasi

2023-yildan 2025-yilgacha bo'lgan davr O‘zbekiston turizmi tarixidagi eng jadal o‘sish davri sifatida tarixga kirdi. 2023-yilda mamlakatga 6,6 million xorijiy sayyoh tashrif buyirgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 8,2 milliondan oshib, o‘sish sur’ati 24 foizni tashkil etdi.

2025-yil yanvar-aprel oylarida O‘zbekistonga 3,1 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi - bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 46,4 foizga ko‘p. 2025-yilning dastlabki 8 oy yakuni bo‘yicha esa mamlakat 7,5 million xorijiy sayyohni qabul qildi, bu o‘sha davr ko‘rsatkichidan 49,1 foizga yuqori. 2025-yil yakunlariga ko‘ra, O‘zbekistonga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni 12 millionga yaqinlashdi va turizm xizmatlari eksporti 4,8 milliard AQSh dollaridan oshdi.

Sayyohlar geografiyasi ham kengaymoqda. Asosiy sayyohlar oqimi O‘zbekistonning qo‘shni davlatlaridan – Qirg‘iziston, Tojikiston, Qozog‘istondan kelmoqda. Uzoq xorij yo‘nalishida esa Rossiya, Xitoy, Hindiston, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniya, Yaponiya va AQShdan keluvchi sayyohlar soni sezilarli o‘sdi. 2024-yilda Rossiyadan 870 ming, 2025-yilda esa bu ko‘rsatkich 1 milliondan oshishi bashorat qilingan edi.

Turizm eksportining iqtisodiyotdagi o‘rni

O‘zbekiston iqtisodiyotida turizm eksportining ulushi tezlik bilan o‘smoqda. 2016-yilda turizm eksportidan tushgan daromad 500 million dollardan oshmagan bo'lsa, 2024-yilda bu ko‘rsatkich 3 milliard dollardan oshdi va 2025-yil yakunlarida 4,8 milliard dollarni tashkil etdi.

2025-yilda O‘zbekistonning umumiy savdo eksportida xizmatlar sektori 27,4 foizlik ulushni egalladi. Xizmatlar eksportida esa turizm yetakchi sektor sifatida birinchi o‘rinda turdi. Ushbu ko‘rsatkich turizmning mamlakat xizmatlar savdosidagi strategik rolini yaqqol ko‘rsatadi.

Yalpi ichki mahsulot nuqtai nazaridan ham turizm muhim o‘ringa ega. O‘zbekiston YaIMi 2024-yilda 115 milliard AQSh dollariga yetdi va 6,5 foizlik o‘sish sur‘atini ko‘rsatdi. 2025-yilda esa YaIM 130 milliard dollardan oshishi prognoz qilingan. Shu kontekstda, turizm eksportining YaIMdagi ulushi taxminan 3,5-4 foiz darajasida baholanmoqda - bu ko‘rsatkich islohotlar boshlangunga qadar mavjud bo‘lgan 0,5 foizdan sezilarli darajada yuqori.

TURIZMNING MILLIY IQTISODIYOTGA KOMPLEKS TA’SIRI

Ish o‘rinlari yaratish va bandlik

Turizm sektori ko‘p tarmoqli xarakter kasb etadi va o‘z ta’sir doirasida mehmonxona xizmatlari, umumiy ovqatlanish, transport, savdo, san’at va hunarmandchilik, sog‘liqni saqlash, raqamli xizmatlar

kabi ko‘plab tarmoqlarni qamrab oladi. Shu sababli, turizmdagi o‘sish iqtisodiyotning boshqa sektorlarida ham ko‘paytiruvchi samara beradi.

So‘nggi ma’lumotlarga ko‘ra, turizm sohasida O‘zbekistonda yuz minglab ish o‘rinlari mavjud bo‘lib, ularning soni yildan-yilga oshmoqda. Infratuzilma qurilishi (mehmonxonalar, yo'llar, aeroportlar), turistik xizmatlar ko‘rsatish va qo‘shimcha tarmoqlarda band bo‘lgan ishchilar sonini hisobga oladigan bo‘lsak, turizm va unga bog‘liq sektorlar mamlakatdagi jami bandlikning sezilarli qismini tashkil etadi.

Ayniqsa, qishloq turizmi va tarixiy shaharlarda xizmat ko‘rsatish sektorida mahalliy aholining bandligi oshgani ijtimoiy jihatdan katta ahamiyat kasb etadi. Bu hol qashshoqlikni kamaytirishga ham bevosita hissa qo‘shmoqda. O‘zbekistonda qashshoqlik darajasi 2016-yildagi taxminiy 35 foizdan 2025-yilga kelib 6,8 foizga tushirildi, bunga turizm sektorining ijobiy hissasi ham qo‘shilgan.

Investitsiyalar jalb etish

Turizm sohasining rivojlanishi xorijiy to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishda ham muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda. Mehmonxona zanjirlarining mamlakat bozoriga kirishi, sayyohlik infratuzilmasiga qo‘yilayotgan kapital mablag‘lar, transport tizimining modernizatsiyasiga yo‘naltirilayotgan investitsiyalar - barchasi birgalikda mamlakatning iqtisodiy o‘sishini qo‘llab-quvvatlamoqda.

O‘zbekiston 8 yil davomida - 2016-yildan 2024-yilgacha - iqtisodiyotiga 155 milliard dollarlik investitsiya jalb qildi. Ushbu investitsiyalarning muhim qismi turizm va xizmatlar sektoriga yo‘naltirildi. Xususan, zamonaviy mehmonxona va resort komplekslarining qurilishi, aeroportlarning kengaytirilishi, tarixiy yodgorliklarning ta’mirlanishi va sayyohlik klasterlarining barpo etilishi ana shu investitsiyalarning ko‘rinadigan samaralaridir.

Valyuta tushumlari va to‘lov balansi

Xorijiy sayyohlardan tushadigan valyuta daromadlari mamlakatning to‘lov balansini ijobiy yo‘nalishda mustahkamlashga yordam beradi. Har bir xorijiy sayyohning mamlakatda sarflagan mablag‘i - turar joy, ovqatlanish, transport, suvenir va boshqa xarajatlar - xorijiy valyutaning iqtisodiyotga kirib kelishi demakdir.

O‘zbekiston Markaziy bankining ma’lumotlariga ko‘ra, xorijiy valyuta zaxiralari 2025-yilda 48 milliard dollardan oshdi. Bu tarixiy rekord ko‘rsatkich bo‘lib, uning shakllanishida turizm eksportidan tushadigan valyuta tushumlarining ham hissasi mavjud.

Multiplikativ ta'sir

Turizmning iqtisodiyotga ta‘siri to‘g‘ridan-to‘g‘ri daromad bilan cheklanib qolmaydi. Turistik xizmatlar ko‘rsatuvchi tarmoqlar o‘z navbatida mahalliy ishlab chiqaruvchilardan mahsulot xarid qiladi, soliq to‘laydi, infratuzilmaga sarmoya kiritadi. Bu jarayon iqtisodiyotda multiplikativ samara hosil qiladi, ya’ni turizmdagi bir so‘m qo‘shimcha investitsiya iqtisodiyotning boshqa tarmoqlarida ham o ‘sishni keltirib chiqaradi.

Masalan, mehmonxona qurilishi qurilish materiallari sanoatini, mebel ishlab chiqarishni, oziq-ovqat sanoatini va kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishga turtki beradi. Transport infratuzilmasining yaxshilanishi nafaqat sayyohlar, balki ichki savdo va logistika uchun ham foydali bo‘ladi. Shunday qilib, turizm iqtisodiyotning barcha sektorlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatuvchi “Lokomotiv” tarmoq sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘ZBEKISTON TURIZMINING XALQARO MIQYOSDAGI TAN OLINISHI

O‘zbekiston so‘nggi yillarda xalqaro turizm platformalarida keng tan olindi. 2023-yilda Samarqandda bo‘lib o‘tgan UNWTO Bosh assambleyasining 25-sessiyasida Navoiy viloyatidagi Sentob qishlog‘i “Eng yaxshi turizm qishlog'i -2023” mukofotiga sazovor bo‘ldi.

Xalqaro Lonely Planet nashriyoti O‘zbekistonni “2024-yilning eng yaxshi sayohat destinatsiyasi” nominatsiyasida maxsus sertifikat bilan taqdirladi. BBC Travel esa O‘zbekistonni 2025-yilning 25 ta eng yaxshi sayohat manzili ro‘yxatiga kiritdi - bu ro‘yxatda mamlakat AQSh, Italiya va Yaponiya bilan bir qatorda turdi. Bundan tashqari, 2025-yilda Samarqandda UNESCOning 43-Bosh konferensiyasi 190 mamlakatdan 3 000 dan ortiq delegat ishtirokida muvaffaqiyatli o‘tkazildi.

Bu xalqaro e’tiroflar O‘zbekiston brendi obro‘sini oshirdi va yangi sayyohlar oqimini jalb etishda muhim marketing vositasi bo‘lib xizmat qildi.

TURIZM SOHASINING MUAMMOLARI VA QIYINCHILIKLARI

O‘zbekiston turizmining jadal rivojlanishiga qaramay, soha hali hal etilmagan bir qator muammo va qiyinchiliklarni boshdan kechirmoqda.

Birinchi muammo - xizmat sifatining nomutanosibligi. Turistik xizmatlar sifati barcha hududlarda bir xil darajada emas. Yirik shaharlar - Toshkent, Samarqand, Buxoro - nisbatan yuqori sifatli xizmat ko‘rsatish imkoniyatiga ega bo‘lsa, ko‘pgina tumanlarda va shahardan tashqari hududlarda infratuzilma va malakali kadrlar yetishmasligi muammosi keskin sezilmoqda.

Ikkinchi muamlo - malakali kadrlar tanqisligi. Turizm sohasida chet til bilimiga va kasbiy ko‘nikmalariga ega mutaxassislar yetarli emas. Mehmonxona menejeri, gid-tarjimon, turoperator sifatida xizmat ko‘rsatadigan yuqori malakali mutaxassislar taqchilligi soha rivojiga to‘sqinlik qiluvchi asosiy omillardan biridir.

Uchinchi muammo - mavsumiylik. O'zbekistondagi turistik faollik asosan bahor va kuz oylarida - napreldan noyabrgacha - yuqori bo‘lib, qishda keskin pasayadi. Bu mavsummiy nomutanosiblik qo‘shimcha muammolarni keltirib chiqaradi: qishda mehmonxona band bo‘lish darajasi pasayadi, xodimlar ishsiz qoladi va infratuzilmadan foydalanish samaradorligi tushadi. Mavsumiyliklarni tenglashtirishga yo‘naltirilgan maxsus dasturlar va qishki turizm mahsulotlarini rivojlantirish zarurligi dolzarb masalalardan biri bo‘lib qolmoqda.

To‘rtinchi muammo - raqamli infratuzilmaning zaif rivojlanganligi. Turizm sektorida raqamlashtirish sur’ati boshqa rivojlangan turizmli mamlakatlarga nisbatan past. Online bron qilish tizimlari, raqamli to‘lov imkoniyatlari va turistik axborot tizimlarini yanada rivojlantirish zaruriyati mavjud.

Beshinchi muammo - ekologik yuklanish. Ayrim tarixiy va tabiiy obektlarga sayyohlar oqimining jadal ko‘payishi ekologik bosimni kuchaytirmoqda. Tarixiy yodgorliklarning muhofazasi va sayyohlik faoliyatini muvozanatli boshqarish - bu ham ustuvor muammo hisoblanadi.

TURIZM RIVOJLANISHINING ISTIQBOLLARI

Sifat yo‘nalishi

Kelajakda O‘zbekiston turizmining asosiy yo‘nalishi sayyohlar sonini miqdoran oshirishdan ko‘ra, ularning sarfi va mamlakatda qolish muddatini uzaytirish - ya’ni sifat mezonlariga o‘tishdan iborat bo‘lishi kerak. Yuqori saflangan (premium) sayyohlarni jalb etish, agroturizm, ekologik turizm, tibbiy turizm, madaniy va ilmiy-ta’limiy turizm kabi maxsus yo‘nalishlarni rivojlantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Infratuzilma va raqamlashtirish

Aeroportlarning kengaytirilishi, yuqori tezlikli temir yo‘l magistrallarining qurilishi, ko‘p maqsadli turizm komplekslarining barpo etilishi hamda onlayn xizmatlar va raqamli turizm platformalarining rivojlantirilishi istiqbolli yo‘nalishlar bo‘lib qolmoqda. Manbalar va klasterlar bo‘yicha turizm infratuzilmasiga maqsadli investitsiyalar jalb etish sohaning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi.

Xalqaro hamkorlik

O‘zbekiston yangi bozorlarni - AQSh, Fors ko'rfazi davlatlari, Hindiston, Xitoy va Skandinaviya – o‘zlashtirish bo‘yicha marketing strategiyasini faol amalga oshirmoqda. Bu yo‘nalishda xalqaro turizm ko‘rgazmalarida ishtirok etish, raqamli media orqali targ‘ibot va fikr yetakchilarini jalb etish usullaridan foydalanilmoqda.

Shuningdek, MDH va ShHT mamlakatlari bilan turizm sohasidagi hamkorlikni kuchaytirish, mintaqaviy turizm marshrutlarini birgalikda rivojlantirish ham muhim istiqbol hisoblanadi. “Yangi Ipak yo‘li” kontseptsiyasi doirasida O‘zbekistonnning Markaziy Osiyo turizm poytaxti sifatidagi rolini mustahkamlash davlat strategiyasining ustuvor yo‘nalishiga aylangan.

2030-yilga mo‘ljallangan maqsadlar

O‘zbekiston 2030-yilga borib yiliga 20 million xorijiy sayyohni qabul qilishni va turizm eksportidan 10 milliard dollar daromad olishni maqsad qilib qo‘ygan. Ushbu maqsadlarga erishish uchun investitsiyalar jalb etish, xodimlarni qayta tayyorlash, xizmat sifatini oshirish va xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish bo‘yicha izchil ishlar davom ettirilishi lozim.

XULOSA

O‘zbekiston turizmining so‘nggi yillardagi rivojlanish dinamikasi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligini yaqqol namoyon etmoqda. 2016-yilda yiliga 500 million dollardan oshmagan turizm eksport daromadi 2025-yilda 4,8 milliard dollardan oshdi. Xorijiy sayyohlar soni esa 2023-yildagi 6,6 milliondan 2025-yilga kelib 12 millionga yaqinlashdi. 2025-yil yakuni bo‘yicha O‘zbekiston dunyoning 200 ta davlatidan sayyohlarni qabul qildi - bu mamlakatning haqiqiy ma’noda xalqaro turizm xaritasiga kirib kelganidan dalolat beradi.

Turizm sektori milliy iqtisodiyotga ko‘p qirrali hissa qo‘shmoqda: yangi ish o‘rinlari yaratish, xorijiy investitsiyalarni jalb etish, valyuta tushumlarini oshirish va YaIM o‘sishiga ta’sir qilish orqali iqtisodiy o‘sishning muhim omillaridan biriga aylangan. Bundan tashqari, turizm iqtisodiyotning ko‘plab boshqa tarmoqlariga multiplikativ ta’sir ko‘rsatib, ularda ham qo‘shimcha o‘sishni keltirib chiqarmoqda.

Biroq sohaning barqaror va sifatli rivojlanishi uchun bir qator muammolarni - kadrlar tayyorlash, xizmat sifatini standartlashtirish, mavsummiylik muammosini yumshatish va ekologik muvozanatni saqlash - izchil hal etib borish zarur. Sifat mezonlariga asoslangan turizm strategiyasini amalga oshirishgina O‘zbekistonga xalqaro turizmda raqobatbardosh va barqaror mavqeni ta’minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, turizm O‘zbekiston iqtisodiyotining eng istiqbolli tarmoqlaridan biri bo‘lib qolmoqda va to‘g‘ri boshqarilgan holda 2030-yilgacha mamlakatning eng yirik daromad manbalaridan biriga aylanishi uchun barcha zaruriy shart-sharoitlar mavjud.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son Farmoni “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi PF-87-son Farmoni “2025–2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Turizm statistikasi 2023-2025. stat.uz
4. Gazeta.uz. “O‘zbekiston YaIMi 2024-yilda 115 milliard AQSh dollariga yetdi”. 2025-yil, 16-yanvar.
5. Gazeta.uz. “Turizm eksporti 3 mlrd dollardan oshdi”. 2025-yil, 27-avgust.
6. O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi. Turizm va madaniyat bo‘limi. digital.gov.uz
7. UNWTO (Jahon turizm tashkiloti). Tourism Highlights 2024 Edition.
8. Spot.uz. “O‘zbekiston tashqi savdosi: 2025-yil yakuni”. 2025-yil, dekabr.
9. Dunyo.info. "2025-yilda 12 million sayyoh – O‘zbekiston turizmda yangi record”. 2026-yil, mart.
10. Uzbekistan Embassy in USA. “The development of Uzbekistan’s tourism contributes to the growth of the people's welfare”. 2024.